

## PSIXOLOGIYA SOHASIDA ILMIY SALOHIYATGA EGA BO'LGAN KADRLAR TAYYORLASH MEXANIZMLARINING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

**Xo'shboqov Kamoliddin Abdulatif o'g'li**  
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Psixologiya sohasida ilmiy salohiyatga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash bugungi kunda asosiy maslalardan bo'lib qolmoqda. Aynan bugungi kunda ilmiy salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash va ularga shart-sharoitlar yaratish va uning turli xil usullari, yo'llarini ishlab chiqish, ko'rsatmalar berish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, salohiyatli kadr, psixologik mexanizm, zamonaviy tendensiyalar, psixologik xizmat.

### ABSTRACT

Training of personnel with scientific potential in the field of psychology remains one of the main tasks today. It is today that it is described about the training of personnel with scientific potential and the creation of conditions for them and the development of its various methods, paths, giving instructions.

**Keywords:** Psychology, capacity frame, psychological mechanism, modern trends, psychological service.

So'nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda aynan zamonaviy psixologiyada malakali kadrlar tayyorlash, psixologiya sohalari yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim yurtlariga qamrovni yanada kengaytirish ishlari amalga oshirilmoqda. Aholining psixologik savodxonligini oshirish chora va tadbirlari ko'rib chiqildi va amalga oshirildi.

Olib borilayotgan ishlar ko'lamiga qaramasdan sohada zudlik bilan bartaraf etilishi talab etiladigan qator muammolar saqlanib qolmoqda.

birinchidan, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning psixologik holati diagnostikasiga ixtisoslashgan psixolog kadrlar hamda tashkilotlar mavjud bo'lsada, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni amalga oshiradigan yagona tuzilmaning mavjud emasligi psixologik xizmatlar faoliyati samaradorligining past darajada qolishiga ta'sir ko'rsatmoqda;

- ikkinchidan, ta'lim muassasalarida profilaktika inspektorlari va mahalla vakillarining xizmat xonalari tashkil etilgan bo'lsada, ularning ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligi yo'nalishlari hamda faoliyati samaradorligini baholash mexanizmlari belgilab berilmagan;

- uchinchidan, aholiga psixologik xizmat ko'rsatish yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida jamiyatda ijtimoiy-psixologik, jumladan, oilaviy muammolar (ajrimlar, oiladagi nizolar, ota-ona va farzand munosabatlari,

qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq), "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlariga tobelik, o'z joniga qasd qilish holatlari davom etmoqda;

- to'rtinchidan, oliy ta'lim tizimida psixologiya sohasida tayyorlanayotgan amaliyotchi psixolog kadrlarning bilimlari umumiy bo'lib qolib, tor soha mutaxassislarini tayyorlash amaliyoti yo'lga qo'yilmagan;

- beshinchidan, psixologiya sohasida magistratura va doktoranturaga qabul soni past darajada bo'lganligi oqibatida, milliy psixologiya maktabini shakllantirishda oqsoqlik sezilmoqda;

- oltinchidan, psixolog kadrlarning moliyaviy rag'batlantirilishi, aholiga psixologik xizmat ko'rsatuvchi markazlar faoliyatining qoniqarsiz ahvolda ekanligi ularga tajribali psixolog kadrlarni jalb qilish imkoniyatini bermayapti.

Respublikamizda aholiga qulay sifatli psixologik xizmat ko'rsatish maqsadida bugungi kunda shu bir qator muommolar bo'lishiga qaramay psixologiya sohasiga, aholiga psixologik xizmat ko'rsatishga yetarlicha e'tibor va e'tirof qaratilyapti desak mubolag'aa bo'lmaydi. Psixolog inson qalbini bunyodkori va naqoshidir. Shu o'rinda psixologik xizmat ko'rsatish haqida ma'lumot berib o'tish joiz, Psixologik xizmatning asosiy mazmuni - sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash, shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish, kasb tanlash muammolaridir. Chexoslovakiyadagi psixolog maslahatchining asosiy funksiyasi psixodiagnostik faoliyatdan iboratdir. Sobiq sovet psixologiyasida bolalar tarbiyasi va ta'limida psixologiyadan foydalanish borasida urinishlar pedologiya doirasida vujudga keldi.

O'zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta'lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o'sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta'limi o'rtasida paydo bolgan ayrim ob'ektiv va sub'ektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo'qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo'li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bolsada, O'zbekistondagi umumta'lim tizimi bilan bogliq

izlanishlar va tadqiqotlar to'xtab qolgani yo'q. Ayniqsa, P. I. Ivanov, V. E. Chudnovskiy, M.G. Davletshin, M. Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator ilmiy va metodik tavsiyalar maktabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma'lum darajada asos bolib keldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bugungi psixologiya sohasi va unda psixologik xizmat ko'rsatish nazariya va amliyotda bajarilmoqda . Ta'lim tizimi psixologiyaning o'rni , va uning samarasi bilinib kelinmoqda . Ruxan va jismonan kamol topgan shaxsga ega mamlakatda rivojlanish va yuksalish davom etib kelaveradi. Buning uchun bizda ta'lim sifatini yaxshilash va malakali kadrlar tayyorlash bugungi kunimizning ta'lim siyosatining dolzarb muommalaridandir. Ta'limimiz sifatli ,tizimli ,uzluksiz bo'lsagini va jahon tajribasidan andoza olgan holda yondashilsa ,bu muommolarga oz bo'lsada yechib topish yo'llarini topgan bo'lardik. va samarali natijalar o'z aksini topadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Raxmanov.A Jumanazarov. Yo. Akbarov.S "YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI" Muammoli maruzalar matni Namangan 2009
2. Zufarova M.E.UMUMIY PSIXOLOGIYA O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti TOSHKENT 2010
3. Pedagogika G'G'A.Q.Munavvarovning tahriri ostida . – Toshkent, O'qituvchi, 1996.
4. Podlaso'y I.P. Pedagogika. Novo'y kurs. V 2 kn. . Kn. 1. – Moskva, Vldos1997.
5. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. –T.: O'qituvchi, 1999.
- 6.G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). \_T.: O'qituvchi, 1994.
- 7.Nishanova.Z.T. "PSIXOLOGIK XIZMAT", –T.:2007.
- 8.Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti", –T.:2013.
9. Amirova, N. (2022). THE ATTITUDE TO MOTIVE AND MOTIVATION IN WORLD PSYCHOLOGY. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 149-152.
10. Amirova, N. U. (2023). PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY MOTIVATSIYANING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1 SPECIAL), 212-215.
11. Amirova, N. (2023). O 'QITUVCHI FAOLIYATIDA MOTIV VA MOTIVATSIYANING AHAMIYATI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii , 3 (3), 60-66.
12. Nazokat, A. (2023). OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MASALALARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 307-310.